

STARTAP LOYIHALARINI GLOBALLASHTIRISHNING O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDAGI O‘RNI

Urazov Sadulla Shodiyevich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, “Menejment” kafedrası dotsent v.b, PhD. e-mail: urazov.sadulla28@gmail.com, telefon: +998(88)-285-28-84

Parmonova Mehribon Shuxratovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti 1-kurs MN-325 guruhi talabasi. telefon: +998(94)- 984-04-84

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada startap loyihalarini globallashtirishning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ko‘rsatadigan ta’siri institutsional, innovatsion va makroiqtisodiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda institutsional-huquqiy hujjatlar, rasmiy statistika, xalqaro innovatsion reytinglar hamda startap ekotizimiga doir ochiq ma’lumotlar asosida O‘zbekistonda startaplarni xalqaro bozorlarga olib chiqishning iqtisodiy samaralari baholandi.

Kalit so‘zlar: startap, globallashtirish, venchur kapital, raqamli iqtisodiyot, IT Park, eksport, innovatsion ekotizim, xalqaro bozor, startap ekotizimi, investitsion muhit, iqtisodiy raqobatbardoshlik

Kirish

Jahon iqtisodiyotida startaplar endilikda shunchaki yangi biznes subyekti emas, balki texnologik modernizatsiya, eksport diversifikatsiyasi va milliy raqobatbardoshlikni kuchaytiruvchi institut sifatida qaralmoqda. O‘zbekiston uchun ham ushbu masala ayniqsa dolzarb, chunki 2024-yilda mamlakat YaIMi 1 454 573,9 mlrd so‘mni tashkil etib, iqtisodiy o‘sinh 6,5 foizga yetdi, xizmatlar sektorining o‘shishi esa 7,7 foiz bo‘ldi va u YaIM o‘shishiga 3,3 foizlik punkt hissa qo‘shdi. Bundan tashqari, 2024-yilda xizmatlar sektorining YaIM tarkibidagi ulushi 47,4 foizga yetgani O‘zbekiston iqtisodiyotida bilim va xizmatlarga asoslangan o‘sinh omillari kuchayib borayotganini ko‘rsatadi.

Boshqa tomondan, O‘zbekistonning raqamli iqtisodiyot ko‘rsatkichlari startap globallasuvi uchun muayyan tayanch bazani yaratmoqda. UNDP ma’lumotiga ko‘ra, 2023-yilda ICT sektori YaIMning 2,1 foizini shakllantirgan, 2024-yilda axborot va kommunikatsiya sohasida 10 551 ta kompaniya faoliyat yuritgan, IT Park rezidentlari soni 2 500 tadan oshgan, ICT eksporti esa 2022-yildagi 140 mln AQSh dollaridan 2023-yilda 344 mln AQSh dollariga yetgan. Shu bilan birga, Global Innovation Index 2024 da O‘zbekiston 83-o‘rinni egallagan bo‘lsa-da, innovatsion outputlar bo‘yicha 91-o‘rinda qayd etilgani innovatsion salohiyatni tijoratlashtirish va globallashtirish mexanizmlarini kuchaytirish zarurligini bildiradi.

Startup loyihalarini globallashtirishning O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'rnini ilmiy jihatdan baholash, uning makroiqtisodiy, institutsional va investitsion natijalarini aniqlash hamda mavjud cheklovlarni tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot gipotezasi shundan iboratki, startaplarni global bozorlarga olib chiqish O'zbekiston iqtisodiyotida xizmatlar eksporti, ventur kapital bozori va texnologik bandlikning o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, biroq bu jarayonni to'liq samarali qilish uchun institutsional infratuzilma va scale-up bosqichidagi moliyalashtirishni chuqurlashtirish talab etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy-statistik tahlil, institutsional tahlil va kontent-tahlil usullaridan foydalanildi. Empirik baza sifatida O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining 2024-yil yakunlari bo'yicha makroiqtisodiy ko'rsatkichlari, UNDPning “Digital Economy of Uzbekistan” hisoboti, WIPOning Global Innovation Index 2024 ma'lumotlari, shuningdek, startup ekotizimi bo'yicha rasmiy e'lon qilingan 2024-2026 yillardagi ko'rsatkichlar olindi. Institutsional tahlilda Prezidentning PP-357-son qarori asosida ishga tushirilgan “Digital Startups Program” hamda 2026-yil 11-fevraldagi PP-59-son qaror doirasidagi kompleks startup ekotizimi mexanizmlari o'rganildi.

Tahlilda quyidagi indikatorlar asosiy mezon sifatida tanlandi: startaplar soni, investitsiyalar hajmi, bitimlar soni va bosqichlari, xorijiy kapital ulushi, ICT eksporti, IT Park infratuzilmasi, xalqaro bozorga chiqishga qaratilgan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari hamda innovatsion natijadorlik ko'rsatkichlari. Ushbu yondashuv startup globallashtirishini nafaqat alohida korxona miqyosida, balki milliy iqtisodiyotning tarkibiy transformatsiyasi nuqtai nazaridan ham baholash imkonini berdi.

Natija va muhokama. Tadqiqot natijalari, avvalo, O'zbekistonda startup globallashtirish uchun makroiqtisodiy va raqamli bazis shakllanayotganini ko'rsatdi. 2024-yilda xizmatlar sektorining yuqori sur'atlarda o'sishi, axborot va kommunikatsiya faoliyatining 13,4 foizga kengayishi hamda ICT sektorining iqtisodiyotdagi ulushi ortib borayotgani texnologik tadbirkorlik uchun ichki talab va institutsional muhit mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. Bu esa startaplarni ichki bozor bilan cheklab qo'ymasdan, global platformalar, SaaS, fintech, AI, edtech va boshqa raqamli segmentlar orqali xalqaro bozorga olib chiqish uchun real iqtisodiy asos mavjudligini anglatadi.

Ikkinchi muhim natija shundaki, O'zbekistonda startup globallashtirishini qo'llab-quvvatlashning huquqiy-institutsional modeli shakllanib bormoqda. 2024-yil 14-oktabrdagi PP-357-son qaror asosida “Digital Startups Program” ishga tushirildi. Unga ko'ra, xorijiy fond yoki biznes farishtalardan investitsiya jalb qilgan startaplarga davlat tomonidan 100 ming AQSh dollarigacha teng ulushda qo'shimcha investitsiya ajratish, inkubatsiya va akseleratsiya xarajatlarining 50 foizigacha qoplash, mentor yollash xarajatlarini qisman kompensatsiya qilish, intellektual mulkni ro'yxatdan o'tkazish xarajatlarini to'liq qoplash, garovsiz moliyaviy yordam berish, IT vizasi va StartupBase platformasi orqali investorlar

hamda akseleratorlar bilan bog‘lash kabi mexanizmlar joriy etildi. Dastur mezonlarida startapning xalqaro bozorga chiqish salohiyati alohida talab sifatida belgilangan.

Uchinchi natija sifatida 2026-yildan boshlab startaplarni “g‘oyadan xalqaro ekspansiyagacha” olib boruvchi to‘rt bosqichli qo‘llab-quvvatlash tizimi shakllantirilgani aniqlandi. PP-59-son qaror bo‘yicha 2030-yilgacha 5 000 ta faol startapga ega bo‘lish, kamida 2 mlrd AQSh dollari miqdorida ventur kapital jalb qilish, 20 mingdan ortiq ish o‘rni yaratish va kamida 400 ta loyihani xalqaro bozorlarga olib chiqish maqsadi qo‘yilgan. Mazkur tizim g‘oya shakllantirish, mahsulotni ishlab chiqish, bozorda sinash va xalqaro kengayish bosqichlarini qamrab oladi; bunda MVP va test xarajatlarini qoplash, R&D markazlari, universitet inkubatorlari, konvertatsiyalanuvchi qarzar va grantlar kabi vositalar ko‘zda tutilgan.

Empirik ma’lumotlar startap ekotizimining tez sur’atlarda kengayayotganini ko‘rsatdi. 2024-yil noyabr oxiriga kelib mamlakatda 400 dan ortiq istiqbolli startap ro‘yxatga olingan va ular 148 mln AQSh dollaridan ortiq investitsiya jalb qilgan. 2025-yil yakunida esa startaplar soni 400 tadan 750 taga oshdi, investitsiyalar hajmi 329 mln AQSh dollariga yetdi, bitimlar soni 38 tadan 140 taga ko‘paydi, ekotizimning umumiy bahosi esa 2020-2025 yillar bo‘yicha 3,9 mlrd AQSh dollariga yetdi. Ushbu dinamikalar O‘zbekiston startap bozori endilikda tajriba bosqichidan tizimli investitsion bozor bosqichiga o‘tayotganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, investitsiyalar tarkibi va bosqichlari startap globallasuvi oldida saqlanib qolayotgan muammolarni ham ochib berdi. 2025-yilda investitsiyalarning 293,7 mln AQSh dollari xorijiy kapital, 35,3 mln AQSh dollari esa mahalliy kapital hissasiga to‘g‘ri kelgan. Bitimlarning 61 foizi seed, 31 foizi pre-seed va atigi 8 foizi Series A va undan yuqori bosqichlarga mansub bo‘lgan. Bu holat startaplar uchun ilk moliyalashtirish imkoniyatlari yaxshilanayotganini, biroq keyingi masshtablash va xalqaro o‘shish bosqichlarida kapital yetishmovchiligi mavjudligini anglatadi.

Natijalardan yana biri - startap globallasuvi uchun eksport va xalqaro akseleratsiya infratuzilmasi ham shakllanayotganidir. 2024-yilda Plug and Play Tech Center’ning Tashkentdagi xalqaro akseleratorining uchinchi to‘lqini uchun 17 ta startap saralab olindi. Bundan tashqari, IT Park Ventures 2024-yil dekabrda ishga tushirildi va 2025-yil oxiriga kelib 7,1 mln AQSh dollari miqdoridagi investitsiya kelishuvlarini imzolab, O‘zbekiston hamda xorijdagi qariyb 70 ta startapdan iborat portfelni shakllantirdi. Bu holat startaplarni nafaqat moliyalashtirish, balki xalqaro investor va mentorlik tarmoqlariga ulash mexanizmi kengayayotganini ko‘rsatadi.

Olingan natijalar startap loyihalarini globallashtirish O‘zbekiston iqtisodiyotida kamida uchta strategik funktsiyani bajarishini ko‘rsatadi. Birinchidan, u xizmatlar eksportining tarkibini murakkablashtiradi va yuqori qo‘shilgan qiymatli raqamli mahsulotlar ulushini oshiradi. Ikkinchidan, u iqtisodiyotga xorijiy ventur kapitalini jalb etib, an’anaviy kreditlashdan farqli bo‘lgan riskli, ammo innovatsion moliyalashtirish kanallarini rivojlantiradi. Uchinchidan, u ilmiy g‘oya, raqamli infratuzilma va xususiy sektor o‘rtasidagi

aloqalarni mustahkamlab, innovatsion ishlab chiqarish va texnologik xizmatlarning yangi segmentlarini shakllantiradi. Bu xulosalar 2024-yilgi makroiqtisodiy o'sish strukturasi, ICT eksport dinamikasi hamda 2025-yildagi startap investitsiya ko'rsatkichlari bilan tasdiqlanadi.

Biroq muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, startap globallashtirish institutsional bazasi kuchaygan bo'lsa-da, natijadorlikda ma'lum nomutanosiblik saqlanmoqda. WIPO ma'lumotiga ko'ra, O'zbekiston innovatsion inputlar bo'yicha 71-o'rinda, innovatsion outputlar bo'yicha esa 91-o'rinda turibdi. Demak, mamlakatda g'oya, infratuzilma va tashkiliy resurslar ma'lum darajada mavjud bo'lsa ham, ularni global miqyosda kapitalizatsiya qilish va tijoratlashtirish darajasi hali yetarli emas. Muallif fikricha, bu holat universitet-biznes integratsiyasining yetarli chuqurlashmaganligi, korporativ buyurtma mexanizmlarining sustligi va mahalliy institutsional investorlarning past faolligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, xorijiy kapitalning ustunligi ikki tomonlama ta'sirga ega. Bir tomondan, bu O'zbekiston startaplarining global investorlar e'tiboriga tushayotganini bildiradi. Ikkinchi tomondan esa, mahalliy venchur bozor chuqurligi hali yetarli emasligini ko'rsatadi. Shu sababli, keyingi bosqichda davlat siyosati early-stage qo'llab-quvvatlashdan tashqari scale-up bosqichini moliyalashtirish, xalqaro sertifikatlash va soft-landing mexanizmlarini kengaytirish, shuningdek, universitet spin-off'lari va korporativ venture client modelini rivojlantirishga yo'naltirilishi maqsadga muvofiqdir. Bu tavsiyalar tadqiqot natijalaridan kelib chiqadigan ilmiy-amaliy xulosa sifatida baholanishi mumkin.

Xulohsa va takliflar. Startap loyihalarini globallashtirish O'zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o'sishning yangi manbai sifatida namoyon bo'lmoqda. U xizmatlar eksportini kengaytirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, yuqori malakali bandlikni oshirish va milliy innovatsion tizimni bozor mexanizmlari bilan integratsiyalashda muhim o'rin tutadi. 2024-2026 yillarda qabul qilingan institutsional chora-tadbirlar startaplarni g'oyadan xalqaro bozorgacha olib chiqishning yagona zanjirini shakllantira boshladi.

Tadqiqot yakunlari asosida shunday ilmiy xulosaga kelish mumkin: O'zbekistonda startap globallashtirish real iqtisodiy o'sish omiliga aylanib bormoqda, biroq ushbu jarayonning barqarorligi uchun scale-up bosqichidagi kapital, innovatsion outputlar samaradorligi va mahalliy venchur institutlari ulushini oshirish zarur. Demak, startaplarni globallashtirishni iqtisodiy siyosatning chekka yo'nalishi emas, balki milliy raqobatbardoshlik strategiyasining markaziy komponenti sifatida ko'rish maqsadga muvofiqdir.

Yuqoridagi fikr mulohazalar mazmunidan kelib chiqib, O'zbekiston startap ekotizimini ichki bozor doirasidan global qiymat zanjirlariga olib chiqishga xizmat qiladigan quyidagi ilmiy-amaliy takliflarni amaliyotga tadbiq etsak maqsadga muvofiq bo'lar edi:

Birinchidan, startaplarning “globallashtirish tayyorlik indeksi”ni joriy etish ya'ni tadqiqot natijasiga ko'ra, startaplarni baholash amaliyotida faqat g'oya va mahsulot emas, balki ularning xalqaro bozorlarga chiqish tayyorligini ham o'lchaydigan maxsus integral indeksni joriy etish maqsadga muvofiq. Ushbu indeks tarkibiga eksportbop mahsulot

mavjudligi, ingliz tilidagi savdo kommunikatsiyasi, xalqaro sertifikatlash, intellektual mulk himoyasi, xorijiy mentorlar bilan ishlash tajribasi va cross-border monetizatsiya modeli kabi mezonlar kiritilishi lozim. Bunday yondashuv PP-59 dagi “g‘oyadan xalqaro kengayishga qadar” konsepsiyasini amaliy o‘lchov tizimiga aylantiradi.[2]

Ikkinchidan, moliyalashtirishni bosqichma-bosqich differensial model asosida tashkil etish. Ilmiy taklif sifatida startaplarni moliyalashtirishni yagona sxema asosida emas, balki idea → pre-seed → seed → scale-up → global expansion zanjiri bo‘yicha differensial tarzda yo‘lga qo‘yish tavsiya etiladi. Chunki amaldagi statistikada bitimlarning mutlaq ko‘pchiligi erta bosqichlarga to‘g‘ri kelmoqda, bu esa keyingi o‘shish bosqichida kapital bo‘shlig‘i mavjudligini anglatadi. Shu sababli 1+1 co-investment mexanizmini faqat boshlang‘ich bosqich bilan cheklamasdan, Series A oldi va eksportga chiqish bosqichlari uchun ham alohida instrumentlar bilan kengaytirish zarur.

Uchinchidan, OTMlarda “startup spin-off” va texnologiya transferi modelini kuchaytirish. O‘zbekistonning innovatsion siyosatida universitetlar qoshida akseleratorlar va R&D markazlarini rivojlantirish nazarda tutilganidan kelib chiqib, ilmiy taklif sifatida OTMlarda “startup spin-off” mexanizmini joriy etish lozim. Bunda magistr, doktorant va ilmiy xodimlar tomonidan yaratilgan ishlanmalarni akademik maqola darajasida qoldirmasdan, ularni patent, prototip va tijoratlashtirish bosqichiga olib chiqadigan texnologiya transfer ofislari tashkil etilishi kerak. Bu yondashuv innovatsion inputlarni real innovatsion outputlarga aylantirishdagi mavjud uzilishni qisqartiradi.

To‘rtinchidan, xalqaro “soft landing” infratuzilmasini maqsadli bozorlar kesimida qurish. Startaplar uchun AQSh, Yevropa Ittifoqi, Janubi-Sharqiy Osiyo bozorlarida maxsus “soft landing” dasturlarini yaratishdir. Bunda ofis maydoni yoki safar xarajatini qoplashning o‘zi yetarli emas; balki target bozor bo‘yicha yuridik maslahat, distributor topish, pilot mijozlar bilan bog‘lash, lokal mentorlik va investor uchrashuvlarini bir paketga birlashtirish zarur.

Beshinchidan, “Regulatory sandbox”ni kengaytirilgan tarmoqlar kesimida qo‘llash. “Regulatory sandbox” mexanizmini faqat umumiy startup qo‘llovi emas, balki tarmoq kesimidagi maxsus rejimga aylantirish maqsadga muvofiq. Xususan, fintech, healthtech, edtech, agritech va logtech yo‘nalishlari uchun alohida sinov maydonchalari yaratilsa, mahsulotlarning bozorga chiqish davri qisqaradi, normativ noaniqliklar kamayadi va investorlar uchun risk darajasi pasayadi. Bu ayniqsa raqamli mahsulotlarning xalqaro moslashuvchanligini oshirishda muhim omil bo‘ladi.

Oltinchidan, xalqaro patentlash va IP-portfelni subsidiyalashning natijaga bog‘langan modelini joriy etish. Startaplarni globallashtirish uchun mahsulot eksportidan oldin intellektual mulkni xalqaro darajada himoyalash zarur. Shu bois ilmiy taklif sifatida PCT, Madrid va boshqa xalqaro ro‘yxatdan o‘tkazish tizimlari bo‘yicha xarajatlarni qisman qoplash bilan birga, IP-portfel yaratgan startaplarga eksport kontrakti yoki investitsiya jalb etish

natijasiga bog‘langan qo‘shimcha grant mexanizmini joriy etish tavsiya etiladi. Bunday yondashuv patentni rasmiy hujjat sifatida emas, balki globallashuv aktiviga aylantiradi.

Yettinchidan, korporativ buyurtma va davlat xaridlarini startaplar uchun “birinchi bozor”ga aylantirish. O‘zbekistonda startaplar soni o‘sayotgan bo‘lsa-da, ularning muhim qismi ilk mijoz topish bosqichida qiyinchilikka duch keladi. Shu sababli ilmiy taklif sifatida yirik banklar, telekom operatorlar, sanoat korxonalari va davlat idoralari huzurida “corporate venture client” modeli joriy etilishi lozim. Ya’ni startaplar avval grant emas, amaliy pilot buyurtma olishi kerak. Bu mahsulotning bozor dalilini kuchaytiradi, keyingi investitsiyani osonlashtiradi va mahalliy bozordan global bozorga chiqishda “proof of traction” vazifasini bajaradi.

Sakkizinchi hududlar kesimida ixtisoslashgan startap klasterlarini shakllantirish. Ilmiy taklif sifatida startap siyosatini faqat Toshkent markazlashuvi asosida emas, balki hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuviga mos ravishda olib borish lozim. Masalan, Samarqand va Buxoroda turizm-tech, Farg‘onada e-commerce va logistics-tech, Toshkentda fintech va AI, qishloq xo‘jaligi ustun hududlarda agritech klasterlari rivojlantirilsa, startap ekotizimi milliy iqtisodiyot tarmoqlari bilan yanada uzviylashadi. Bu yondashuv globallashuvni umumiy shior emas, tarmoq eksport strategiyasiga aylantiradi.

To‘qqizinchidan, startap ekotizimi uchun yagona analitik monitoring platformasini yaratish. Startaplar haqidagi ma’lumotlarni yagona platformada jamlaydigan Startup Observatory Uzbekistan tizimini yaratishdir. Ushbu platformada startaplar soni, bosqichlari, investitsiya turlari, eksport geografiyasi, patentlar, ish o‘rinlari, muvaffaqiyatsizlik koeffitsienti va exit holatlari muntazam monitoring qilinishi kerak. Hozirgi o‘shir ko‘rsatkichlari mavjud bo‘lsa-da, chuqur analitika yetarli darajada institutlashmagan. Statistik kuzatuv tizimi kuchaysa, davlat qo‘llovining samara koeffitsientini ilmiy baholash ham osonlashadi.

O‘ninchidan, diaspora va xalqaro mentorlar tarmog‘ini institutsional shaklga keltirish. Startaplarni globallashtirishning muhim resurslaridan biri xorijdagi professional tarmoqdir. Shu bois ilmiy taklif sifatida o‘zbekistonlik diaspora vakillari, xalqaro ekspertlar va xorijiy akseleratorlar bilan bog‘langan “Global Uzbek Founders Network” formatini yaratish zarur. Bunday tarmoq startaplarga nafaqat bilim, balki investor, hamkor va mijoz topish imkonini ham beradi. AQSh bozori va xalqaro akseleratorlar bilan aloqalarning kuchayib borayotgani bu modelni institutsional darajaga olib chiqish mumkinligini ko‘rsatadi.

O‘n birinchidan, startap globallashuvining iqtisodiy samaradorligini baholovchi metodikani ishlab chiqish. Startaplarning globallashuvi milliy iqtisodiyotga qanday ta’sir qilishini o‘lchaydigan alohida metodikani ishlab chiqishdir. Unda xizmatlar eksporti, yuqori malakali bandlik, soliq tushumlari, texnologik spillover, korporativ raqamlashtirishga ta’sir va hududiy innovatsion faollik kabi indikatorlar qo‘llanilishi mumkin. Mazkur takliflarning amaliyotga tatbiqi startaplarning xalqaro raqobatbardoshligini oshirish, xizmatlar eksportini

kengaytirish, venchur kapital bozorini chuqurlashtirish va O‘zbekiston iqtisodiyotining innovatsion o‘shish modeliga o‘tishini tezlashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, PF-165, 2022-yil 6-iyul.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 11-fevraldagi PQ-59-sonli “Startaplarni qo‘llab-quvvatlashning kompleks ekotizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. “Startup loyihalar va venchur moliyalashtirish ekotizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, PQ-357, 2024-yil 14-oktabr.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil yanvar-dekabr oylaridagi ijtimoiy-iqtisodiy holati [Elektron manba]. - Toshkent, 2025.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasining 2024-yildagi yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishi (dastlabki ma’lumotlar) [Elektron manba]. - Toshkent, 2025.
6. IT Park Uzbekistan. “Digital Startups Program taqdimoti: startaplar qanday qo‘llab-quvvatlanadi”, 2024-yil 7-dekabr.
7. United Nations Development Programme. Digital Economy of Uzbekistan: The State of Digital Entrepreneurship and Artificial Intelligence [Elektron manba]. - Tashkent, 2025.
8. World Intellectual Property Organization. Uzbekistan Ranking in the Global Innovation Index 2024 [Elektron manba]. - Geneva, 2024.
9. Outsource.gov.uz. Presentation of the Digital Startups Program: Support for Startups [Elektron manba]. - Tashkent, 2024.
10. IT Park Uzbekistan. IT Park Ventures: A New Milestone in the Development of Uzbekistan’s Startup Ecosystem [Elektron manba]. - 2024.
11. Outsource.gov.uz. Plug and Play, One of the World’s Most Active VCs, Announces Startup Cohort for its International Accelerator in Uzbekistan [Elektron manba]. - Tashkent, 2024.
12. Narzullaev, Sh. E. “Talaba yoshlarning g‘oyalarini tijoratlashtirishda biznes inkubator faolligini oshirish yo‘llari” // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2024, 12-jild, 3-son, 104-113-betlar.

13. Turayeva, S. “Raqamli iqtisodiyotda IT-startaplarning o‘rni va ularning muvaffaqiyat omillari” // Prikladnye nauki v sovremennom mire: problemy i resheniya, 2025, 4-jild, 7-son, 76-82-betlar.